

**Ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma so‘zlar tarkibiy tuzilishining qiyosiy tahlili****Muqimjon Axunov Muhammadaminovich**

(PhD) filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

E-mail: muqimjon.axunov@bk.ru

Tel: +998979977443

**A‘zamova Shahloxon Abdurahob qizi**

Roman-german va slavyan tillari fakulteti talabasi

E-mail: shahloazamova3@gmail.com

Tel: +998947033353

**ANNOTATSIYA**

Ingliz tilida keng tarqalgan til hodisalaridan bo‘lmish qo‘shma so‘zlar va ularning tarkibiy tuzilishi va shu bilan bog‘liq bo‘lgan semantikasini o‘rganish va shu asosda ularni o‘zbek tilidagi qo‘shma so‘zlar bilan qiyoslash, har ikkala til uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarni umumlashtirish va shu asnoda qiyoslanayotgan tillarning har biriga xos bo‘lgan hodisalarni ochib berishdir.

Kalit so‘zlar: qo‘shma so‘z, so‘z yasash, qisqartma so‘z, ibora, lingvokulturologiya

**ANNOTATION**

To study compound words, which are common linguistic phenomena in English, and their structural structure and related semantics, and on this basis, to compare them with compound words in Uzbek, to summarize the features common to both languages, and to reveal the phenomena specific to each of the compared languages is to give.

**Key words:** *compound word, word formation, acronym, phrase, linguoculturalism*



Tilning lugʻat sostavi murakkab va koʻp qirrali hodisadir. Lugʻat sostavi tilning boshqa boʻlimlariga qaraganda bir tomondan turgʻun, ikkinchi tomondan esa, tashqi taʼsirlarga, kundalik hayotiy omillar taʼsiriga tez beriluvchan qismidir. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida, siyosiy va maʼnaviy qarashlarida yuz beradigan oʻzgarishlar, eng avvalo til leksikasida oʻz ifodasini topadi. Shuningdek, kundalik nutqiy amaliyot, bundagi individual va ijtimoiy nutqiy jarayonlar soʻzlovchini til birligi boʻlgan soʻzlarni turli nutqiy vaziyatlarda, turli semantik qirralarda qoʻllashga majbur etadi.

Yangi tushuncha va tasavvurlarni ifodalash yangi soʻzlarni yaratishni talab etadi, yangi narsa va hodisalarni kashf etilishi ularni nomlashni (atashni) taqozo qiladi [9, 52-54]. Natijada til yangi soʻzlar hisobiga boyib boradi. Ammo har qanday ehtiyoj ham tilda yangi soʻzlarni tugʻdiravermaydi. Yangi tushuncha va hodisalarni nomlash uchun hadeb yangi soʻz yasash ham mumkin emas. Bu hol tilning lugʻat sostavini miqdor jihatdan nihoyatda ogʻirlashtirib, murakkablashtirib yuborgan boʻlur edi. Shuning uchun tilda oldindan mavjud boʻlgan soʻzlarga yangi maʼnolar yuklash, soʻzni yangi vazifalarda qoʻllash usullari keng tarqalgan. Soʻzlarning maʼnolari mana shu usulda kengayadi, soʻzning nominatsion imkoniyatlari mana shu usulda universallashtiriladi.

Ushbu jarayonlar til lugʻat sostavidagi soʻzlarning vazifalarini yanada murakkablashtiradi [6, 47].

Til lugʻat sostavidagi koʻp tomonlama jarayonlar va qonuniyatlarni anglash uchun lugʻat sostavining soʻz boyligini maʼlum ilmiy metodlar asosida tadqiq etish lozim. Hozirgi zamon tilshunosligida bunday usullarning bir qancha koʻrinishlari mavjud. Biz quyida mana shu aspektlarning ayrimlari ustida qisqacha toʻxtalib oʻtish niyatidamiz va bu orqali mazkur ish uchun tanlangan ilmiy aspektning maqsad va prinsiplarini ochishga, asoslashga harakat qilamiz.

Koʻrinib turibdiki, tilning lugʻat sostavi va unga kiruvchi lugʻaviy hodisalar turli tuman va koʻp qirraliligi bilan xarakterlanadi. Til lugʻat sostavining rivoji va boyishi qonuniyatlarini ochish mana shu lugʻaviy hodisalarga xos lingvistik va nolingvistik xususiyatlarni tadqiq etishni talab qiladi.



Tilshunoslikda bunday tadqiqotning turli usullari mavjud [5, 97]. Bu usullarning ko‘pchiligi til leksikasidagi ma’lum sistemalilik xususiyatlariga tayangan holda ish ko‘radi. Lekin leksikadagi sistemalilik tilning boshqa yaruslarida bo‘lganidek ko‘zga aniq tashlanib turmaydi. Shunga qaramasdan, til lug‘at sostavining sistemali ekanligini inkor qilib ham bo‘lmaydi. Hozirgi zamon tilshunoslik fanida sistema tushunchasining leksikaga tadbiiq qilingan ba’zi ko‘rinishlari mavjud. Bular quyidagilardir:

- 1) so‘z turkumlari sistemasi;
- 2) leksikani tematik (ma’no) jihatdan guruhlariga ajratish;
- 3) so‘zlarning yasaliish strukturasiiga ko‘ra guruxlash;
- 4) leksikani funksional-stilistik jihatdan guruhlariga ajratish va boshqalar.

Bu omillar so‘zlarning leksik ma’no nuqtai nazaridan o‘zaro munosabatida yorqin ko‘zga tashlanadi. Lug‘at sostavidagi so‘zlarning bir biri bilan o‘zaro aloqadorligi, bu aloqadorlikning ma’lum ichki qonuniyatlarga tayanishi, ya’ni sistemaliligi tilning ichki taraqqiyoti va til leksikasiga, tashqi faktorlar ta’sirida yuzaga chiquvchi muayyan kuchlarga tayanadi.

Til lug‘at sostavidagi so‘zlar orasidagi sistemali aloqani yuzaga keltiruvchi omillar quyidagilar:

- 1) so‘z mustaqil leksik ma’nosining borliqqa va bu bilan aloqador bo‘lgan tushunchaga munosabati, kuchi;
- 2) so‘zlarning yasala olish imkoniyatlari, bu ma’noda so‘zlarning (masalan, biror bir so‘z turkumiga) birlasha olish kuchi;
- 3) so‘zlarning o‘zaro semantik munosabatlari kuchi; ma’noda yaqinlik (sinonimlar), ma’noda moslik (dubletlar), teskari ma’noga egalik (antonimlar), bir tematik qatorga mansublik (terminlar, professionalizmlar), shaklan moslik (yaqinlik), mazmunan uzoqlik (omonimlar);
- 4) so‘zlarning nutqda o‘zaro bog‘lana olish va yonma-yon qo‘llana olish kuchi;



5) soʻzlarning uslubiy ehtiyoj va talablarga koʻra maʼlum guruhlarga ajrala olish kuchi va shu kabilar.

Til leksikasidagi sistemalilik undagi lugʻaviy birliklarni maʼlum prinsiplar va yetakchi belgilarga koʻra muayyan guruhlarga ajratilganda ravshan koʻrinadi. Shu sababli ham tilshunoslikda lugʻaviy birliklarni mana shu usulda tasnif qilish orqali oʻrganish keng tarqalgan. Bunday usullar uchun asosan quyidagi mezonlar asos qilib olinadi.

1. Soʻzning shakl strukturasi.
2. Soʻzning yasalish strukturasi.
3. Soʻzning maʼno strukturasi.
4. Soʻzning leksik-morfologik strukturasi.
5. Soʻzlarning onomasiologik-nominatsion xususiyatlari.
6. Soʻzlarning funksional-chastotaviy xususiyatlari.
7. Soʻzlarning tarixiy-etimologik xususiyatlari.
8. Soʻzlarning sotsial-differensial xususiyatlari.
9. Soʻzlarning funksional-stilistik xususiyatlari.
10. Soʻzlarning tarixiy funksional xususiyatlari.
11. Soʻzlarning borliqdagi narsa, hodisa va tasavvurlarni atash doirasiga koʻra xususiyatlari va boshqalar.

Qayd etilgan mezonlar tilning lugʻaviy birliklarini maʼlum guruhlarga ajratish va oʻrganish uchun asos boʻla oladi. Quyida soʻzlarni mana shu asosda guruhlashga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Soʻzlarning shakl strukturasi koʻra maʼlum guruhlarga boʻlish anʼanaviy (tradision) tilshunoslikda keng tarqalgan usuldir. Bu usulga koʻra soʻzlar oʻzbek tilida sodda soʻzlar, qoʻshma soʻzlar, qisqartma soʻzlar, juft soʻzlar, takroriy soʻzlar soʻzlarga ajraladi. Soʻzlarning bu guruhlari oʻzbek tili grammatikalarida keng yoritilgan.



Soʻzlarni yasash strukturasi koʻra guruhlash ham anʼanaviy usullardan biridir. Bunda avvalo tub va yasama soʻzlar ajratiladi. Yasama soʻzlarda yangi leksema hosil qilish yoki soʻz formasi (grammatik forma) hosil qilishi bilan farqlanadi. Keltirilgan tasnifda bir tomondan soʻzning morfologik strukturasi nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, leksemalarning yasash modellari hisobga olinadi.

Til lugʻat sostavidagi leksik materiallarni grammatik strukturasi koʻra guruhlash lingvistik tajribada eng koʻp sinalgan va ishonchli yoʻldir. Chunki ushbu tasnifda soʻzlarning tilning ichki grammatik qonuniyatlari bilan bogʻliq boʻlgan eng xarakterli tomonlari asos qilib olinadi. Shu tufayli leksikaning bu usuldagi tasnifida til lugʻat sostavining sistema sifatidagi xususiyatlari yorqin namoyon boʻladi.

Soʻzlarning maʼno strukturasi koʻra guruhlashning anʼanaviy va yangi usullari mavjud. Bu usulda soʻzlarning maʼno xususiyatlari hisobga olinadi.

Oʻzbek tili leksikasining qayd etilgan semantik guruhlari yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Soʻzlarni leksik-morfologik strukturasi koʻra maʼlum sistemali guruhlarga ajratish orqali tavsiflash hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan usullardan biridir. Oʻzbek tili lugʻat sostavidagi soʻzlar bu usulda soʻz turkumlariga ajratiladi. Bu usul tilshunoslikda keng tarqalgan va barchaga yaxshi tanish boʻlgani bois, biz unga ortiqcha toʻxtab oʻtirmaymiz.

Shuni qayd etishimiz mumkinki, bu usul til leksikasining sistemali hodisa ekanini isbot qilishning eng ishonchli yoʻllaridandir va u oʻz mohiyatiga koʻra til rivojining ichki qonuniyatlariga tayanishi jihatidan ham qimmatlidir. Til lugʻat sostavidagi soʻzlar faqat maʼno anglatish, maʼlum xabarni tashish uchunгина xizmat qilmaydi, balki predmet va hodisalarni nomlash (atash), uning doimiy nomiga aylanish vazifasini ham oʻtaydi. Soʻzlarga xos mana shu belgi ularni onomasiologik, yaʼni nominatsion nuqtai nazardan maʼlum guruhlarga ajratish uchun asos boʻladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**



1. В.Д.Аракин Лингвистическая типология и методика обучения иностранным языкам. “Вопросы теории методики преподавания иностранных языков”. Казань, 1969, 77.
2. Абдурахмонов Ғ., А. Сайфуллаев, Ҳ. Рустамов. Она тили. Т., 1995.
3. Абдурахмонов Ғ., Ш.Шукуров. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т., 1973.
4. Абдурахмонов Ҳ., А. Рафиев. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. Т., 1992.
5. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. ЛГУ, 1963
6. Арнолд И.В. Стилистика современного английского языка Л.1981.
7. Арнольд И.В. Лексикология современног английского языка. (The English Word) М., 1973.
8. Арутюнова Н.Д. Очерки по словообразованию в современном испанском языке. М.,1961.
9. Ахманова О.С. К вопросу об отличие сложных слов от фразеологических единиц. Труды ИЯ., т.1У, М., 1954
10. Бархударов Л.С. Русско-английские языкоые параллели. РЯЗР, 1972.
11. Баскаков Б.А. Содиқов А.С. Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик, Т., 1989 й.



ILMIY NASHRLAR MARKAZI